



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI TURIZMNING O'RNI VA ROLI

Annotatsiya:

Maqolada ichki turizmning qamrovi, iqtisodiy foydalari, mahalliy infratuzilmani yaxshilash va xalqaro turizm bilan integratsiya jarayonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ichki turizm orqali yangi ish o'rirlari yaratilishi va joylarning obodonlashtirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:

ichki turizm, sayyohlik, innovatsiya, iqtisodiyot, tarixiy qadamjolar.

***Information about
the authors***

Bozorova Jasmina Yusuf qizi
QarshiDU, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va o'zbek xalqining turmuş farovonligini oshirish ko'rsatkichidir. Respublikamizning tarixiy-madaniy joylari va bu joylarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish bo'yicha takliflar berilgan. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirishda innovatsion usullarni qo'llash bo'yicha fikr-mulohazalar qayd etilgan.

Turizm (fransuzcha: our - sayr, sayohat), sayyohlik - sayohat (safari) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. **Ichki turizm** esa - O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi. Dunyo bo'ylab sayyohlarning 80-90 foizi ichki turizmga to'g'ri keladi. Uning xarajatlari xalqaro turizm xarajatlaridan 5-10 barobar yuqori. Shu sababdan ham dunyo turizmi tarixida ichki turizmga jamoatni jalb qilish hamda sayyohlik agentlklari va PR markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish ishlari olib borilgan. Jumladan har bir diqqatga sazovor maskanlarning reklamalari sifatli darajada ijtimoiy tarmoqlarga tarqatiladi. Ushbu joylarning foydali hamda daromadli jihatlari ko'rsatilib o'tiladi. Reklama bannerlari tashkil etiladi. Yo'l chetlarida sayyohlik markazlarining yo'l ko'rsatkichlari aniq qilib joylashtiriladi. Hozirgi kunga qadar dam olish kunlarida oilaviy sayohat uyuştirish an'anasi yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalishdagi barcha imkoniyatlardan keng foydalanish maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganib, ularning talablari imkon darajasida qoniqtiriladi. Mahalliy turist - O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'Imagan shaxs. Turizm industriyasi, xususan ichki turizm yurtimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Ichki turizm orqali olingan daromadlar soliq bazasini ko'paytiradi. Turistlardan olinadigan to'lovlar, mehmonxona va restoran soliq turlari davlat budgetiga qo'shimcha daromad keltiradi. Shuningdek, mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi madaniy almashinuv mahalliy madaniyat va urf-odatlarni saqlashga yordam beradi va aholi hayotini boyitadi, yangi madaniy tajribalar, qo'shimcha xizmatlar orqali umumiylayot sifatini oshiradi. Mamlakatimizning har bir hududi o'ziga xos turistik jozibaga ega. Qadim o'tmishdan so'zlovchi tarixiy yodgorliklarni ko'rish, boy merosimizni o'rganish har bir kishida milliy o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini

shakllantiribgina qolmay, o‘z vatani tarixini bilishga, ajdodlar merosini o‘rganish orqali shu yurt farzandi ekanligidan faxr, g‘urur tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko‘tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko‘paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatlarini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘srimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta‘minlash va ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida:

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-iyundan boshlab “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida:
 - jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritiladi;
 - sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning budgetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda ta‘qilanganmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab beriladi.
2. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida ichki turizmni rivojlantirishni muvofiqlashtirib borish uchun mas‘ul etib “Turizm va madaniy meros vazirligi” hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilandi.
3. Moliya vazirligi respublika budgetining qo‘srimcha mablag‘lari hisobidan sayohat xarajatlarini qaytarishni moliyalashtirish uchun joriy yilda jami 10 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘larning “Turizm va madaniy meros vazirligi” huzuridagi budgetdan tashqari Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma) ajratilishini ta‘minlash.
4. “Turizm va madaniy meros vazirligi” bilan birgalikda uch oy muddatda 2023-2024-yillarda ichki turizm yo‘nalishi bo‘yicha hududlarda boshlanadigan yirik turizm loyihamarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutib, iqtisodiy o‘sish, aholi bandligini ta‘minlash, valyuta tushumlari, infratuzilmani rivojlantirish va madaniyatni saqlashning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish haqida so‘z borar ekan, avvalo ichki turizmni rivojlantirishga e‘tibor qaratishimiz kerak. Misol qilib aytishimiz mumkin, xalqaro turizm rivojlangan davlatlar o‘nligiga kirgan Buyuk Britaniyada ichki turizm yo‘nalishidagi sayyoohlarni xalqaro turistlar sonidan yuqori. Mamlakatimizda 7 mingdan ortiq tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud. Xususan, bиргина Xiva shahrining o‘zida 60 dan ziyod avliyolarning muqaddas qadamjolari mavjud. Ichki turizm orqali fuqarolar O‘zbekistonning boy madaniy merosini kashf etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Tarixiy joylarga, an‘anaviy san’at va hunarmandchilikka qiziqish ortadi. Bu, o‘z navbatida, madaniyatni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, yurtimizda geografik tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladigan hududlar mavjud, bu albatta sayyoohlarning tanlash imkoniyatini oshiradi. Shu sababli mamlakatimizda turizmni rivojlantirish haqida so‘z borar ekan, faqatgina ziyorat turizmi yoki tarixiy obidalar bilan cheklanmasdan, ekologik turizm, tibbiyot turizmiga ham sayyoohlarni jalg qilish mumkin. Sababi shundaki, yurtimizda nafaqat tarixiy inshoatlari, balki ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan arzon va sifatlari tibbiy xizmatlarni taqdim etadigandam olish maskanlariga ham ega. Shu o‘rinda aytib o‘tishim kerakki, tibbiyot turizmni rivojlantirish uchun tibbiyot infratuzilmasini jadal modernizatsiya qilish va sohani boshqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bu esa hududlar daromadini oshirish va shu bilan birga, boshqa sohalarni rivojlantirishni ham rag‘batlantirish zarur, shuningdek, sog‘lomlashtirish hududlari infratuzilmasini rivojlantirish va aholi salomatligini mustahkamlash, tabiiy shifobaxsh resurslar va madaniy merosni asrab-avaylash. Bundan tashqari, tabiiy omillarning salomatlikka

ta'sirining biologik mexanizmlari bo'yicha ko'proq tibbiy tadqiqotlar olib borish, tibbiyat muassasalarini uchun zamonaviy talablarga javob beradigan davolash standartlarini ishlab chiqish bilan birlashtirish taklif etiladi: gastronomik turlar, vitaminli turlar, arxeologik turlar, ko'chmanchilar sayohatlari, mototsikl sayohatlari va boshqalar. Ichki turizmning rivoji ekologik muammolarni ham yengillashtirishga yordam berishi mumkin. Tabiiy joylarni saqlash va ularni boshqarish orqali sayyoohlarni uchun muhofaza qilingan hududlar yaratiladi. Bu, o'z navbatida, tabiiy resurslarni saqlashga yordam beradi. O'zbekistonda ichki sayohat qilishning asosiy sabablari madaniy va tarixiy diqqatga sazovar joylar, tabiat va ochiq havoda sayr qilish hamda diniy turizmdir. Hukumat ichki turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash, masalan, yangi mehmonxonalar qurish va tarixiy joylarni ta'mirlashga katta miqdirda sarmoya kiritmoqda. O'zbekistonda kichik oilaviy biznes ortib yirik xalqaro tarmoqlargacha bo'lgan 1000 dan ortiq mehmonxonalar mavjud. Bu mehmonxonalarning aksariyati sayyoohlarni uchun mashhur Toshkent, Samarcand, Buxoro, Xiva kabi yirik shaharlarda joylashgan. O'zbekistondagi aksariyat mehmonxonalar ham xorijiy, ham mahalliy sayyoohlarni joylashtirishga mo'ljallangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, axborot tizimlarining rivojlanib borayotganiga qaramay, mamlakatimizning turizm sohasida mobil innovatsion texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada emas. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarda axborot va mobil texnologiyalar sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. Turistik salohiyatni oshirish maqsadida IT dasturchilari tomonidan biznesni rivojlantirishda mobil texnologiyalarni moslashtirish va yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida" turizm sohasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yangi xizmat turlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish vazifasi belgilangan. O'zbekiston ichki turizmining rivojlanishi uchun qo'yilgan strategiyalar va takliflar amalga oshirilsa, mamlakat iqtisodiyotida sezilarli ijobjiy o'zgarishlar bo'lishi va ichki turizm sohasining to'liq potensiali ochilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish, jumladan, xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmani yaratish, mintaqaviy tuzilmalarni yaratish, xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash, tarixiy-madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish negizida turizmni jadal rivojlantirish, turizm va uning milliy mahsulotdagi ulushini oshirish va sayyoohlarni jalb etishni ta'minladi. Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirish uchun transport infratuzilmasini yaxshilash, mehmonxona va xizmatlar sifatini oshirish, raqamli marketingni rivojlantirish va barqaror turizm strategiyalarini joriy etish zarur. Madaniy va tematik sayohatlarni rivojlantirish, shuningdek, mahalliy aholini turizm faoliyatlariga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. U nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shamdi. Shuning uchun, davlat ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi zarur. Bu esa O'zbekistonning kelajakdag'i rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Numonjonova O. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari yo'nalishlari."
2. Rakhmonov T.S. "Tourism in the World and Uzbekistan Economy Palace and Role." Journal NX: 233-236.
3. Yunusova S. Turizm sohasini rivojlantirish orqali hududiy daromadlarni oshirishdagi o'ziga xos jihatlari.
4. Turizmning O'zbekistondagi faoliyati: Oybek Akhmadjonov, Botirbek Abdug'afforov.
5. <https://lex.uz/>